

O‘ZBEK TILIDA IBORALAR TASNIFI

TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

*2-kurs talabasi **Boltayeva Farida***

*Ilmiy rahbar: **Majidova Shahnoza***

TerDPI katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi iboralarning ma‘nolari va ularning gapda qo‘llanilishi haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, so‘z va ibora o‘rtasidagi farqlar ya‘ni sinonimik, antonimik frazeologiya haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: ibora, frazeologik ma‘no, iboraning ma‘no turlari, ibora va so‘z.

Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi so‘z ma‘no jihatdan birlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Ko‘pincha ma‘nosi bir so‘zga teng va ko‘chma bo‘ladi. So‘zning bunday barqaror bog‘lanmasi iboralardir. Tilshunoslikning ibora mavzusini o‘rganuvchi maxsus bo‘limi frazeologiya deyiladi. Ko‘chma ma‘no anglatib, gapda butunligicha bir bo‘lak vazifasida keladigan, obrazli, jozibali barqaror birikma frazeologik birikma ya‘ni ibora deyiladi: “boshi osmonga yetdi” – “xursand” , “yuziga oyoq qo‘ymoq” – “hurmatsezlik qilmoq”, “hushi boshidan uchmoq” – “esankiramoq” ma‘nosida kelyapti.

So‘z ham, ibora ham lug‘aviy birlik hisoblanadi. Tilning lug‘at boyligini tashkil etadi. Ibora tarkibidagi so‘z mustaqil ma‘noga ega emas. Ibora so‘z yig‘indisining ko‘chma ma‘nosiga asoslanadi. Shuning uchun uning tarkibidagi bir nechta so‘z bir butunligi gap bo‘lagi vazifasida keladi:

Ko‘z ochib - yumguncha bir qancha kishilar paydo bo‘ldi. Bu gapda “ko‘z ochib-yumguncha” iborasi “juda tez” ma‘nosida va gapda payt holi vazifasida kelyapti.

Iboralarning ma‘no tarkibi frazeologik va qo‘shimcha ma‘nodan iborat. Iboradan anglashiladigan miqdor, belgi va harakat kabilar haqidagi ma‘lumot frazeologik ma‘no deyiladi¹. Masalan, Qizim boshimni osmonga yetkazdi. (A.Qahhor) Bu gapda harakat “juda xursand qildi” ma‘nosi ifodalangan. Iboraning atash ma‘nosi biror so‘zning atash ma‘nosiga teng.

Bunga misol qilib oladigan bo‘lsak, “xufiya” so‘zi va “yeng ichida” iborasi ma‘nodoshlik hosil qiladi. Bunda “xufiya” so‘zi “yashirinlik” degan ma‘noni anglatadi va “yeng ichida” iborasi ham shu ma‘noni bildiradi.

¹ Bahriddinova B. Ibora - frazeologiya. - Toshkent: Akadem- nashr NMM, 2008.- B. 85-86.

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan so'zning leksik ma'nosidan farq qiladi. Solishtirib ko'rsak, "beqiyos" – "yer bilan osmoncha", "xursand" – "og'zi qulog'ida". Ayrim ibora bildirgan ma'noni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: "nog'orasiga o'ynamoq" – "kimningdir izmi, yo'l - yo'rig'i bilan ish ko'rmoq".

Iboraning qismlari qat'iy bir qolipga kirib ketganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, fikr chalkashligiga olib keladi.

Iboralarning ham so'z kabi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi mavjud.

1. Ko'p ma'noli ibora. Birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ibora ko'p ma'noli ibora deyiladi: "Bosh ko'tarmoq": 1) "asta-sekinlik bilan sog'aymoq"; 2) "sekin qarab qo'ymoq". "Ko'zi ochildi": 1) "tushunib yetmoq"; 2) "uyqusidan uyg'onmoq".

2. Omonim ibora (shakldoshlik). Bir xil so'zdan tuzilgan, ya'ni shakli o'xshash, ammo ma'nosi har xil bo'lgan ibora omonim ibora deyiladi: 1) "yuragini yormoq" I – "qattiq cho'chitib qo'rqitmoq"; 2) "yuragini yormoq" II – "ichidagi istak yoki dardini aytmoq".

3. Sinonim ibora (ma'nodoshlik). Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan iboraga sinonim ibora deyiladi: 1) "dunyoga kelmoq" – "tavallud topmoq"; 2) "boshi ko'kka yetmoq" – "og'zining tanobi qochmoq".

4. Antonim ibora (zid ma'noli). Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora antonim ibora deyiladi: 1) "ko'kka ko'tarmoq" – "maqtamoq", "yerga urmoq" – "hurmatsizlik qilish"; 2) "qo'li uzun" – "boy, qurbi yetadigan", "qo'li kalta" – "kambag'al, nochor".

Ibora va so'z. So'z ham, ibora ham tushuncha ifodalaydi va gapda bir bo'lak vazifasida keladi. So'z tovushdan, ibora esa so'zdan tashkil topadi. So'zning ma'no tarkibida qo'shimcha ma'no bo'lmasligi mumkin. Iborada esa har doim qo'shimcha ma'no mavjud². Iboralar ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topganligi uchun qo'shma so'z va so'z birikmalariga o'xshaydi. Lekin ular ko'chma ma'noga ega ekani, ta'sirchanligi bilan qo'shma so'zlardan, barqarorligi, nutqqa tayyor holda olib kirilishi bilan so'z birikmalaridan farqlanadi.

Iboralar tilning eng muhim tasviriy-uslubiy vositalaridan biridir. Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Ilmiy va rasmiy uslublarda ko'pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo'llanadi. Masalan, "qo'l qo'ymoq", "ovoz bermoq", "qo'l ko'tarmoq" kabi iboralar bunga misol bo'la oladi. Badiiy va publitsistik, shuningdek, so'zlashuv uslublarida iboralar xilma-xil tasviriy-uslubiy vazifalarni bajaradi, bunga iboralardagi mavjud rang-barang uslubiy bo'yoq imkoniyat yaratadi. Iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat va holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq

² Erkaboyeva N. O'zbek tilining amaliy grammatikasi.- Toshkent: Yosh kuch, 2020.- B. 113.

chiqargan aniq xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalari hisoblanadi. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta’minlashda betakror vositalardir. So‘z san’atining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, iboralar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma’naviy xazinadir. Iboralarni turli tomondan o‘rganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish, umumlashtirish yangidan yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent-2020. B-53.
2. Erkaboyeva N. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: Yosh kuch , 2020.- B. 113.
3. Bahriddinova B. Ibora - frazeologiya. – Toshkent: Akadem- nashr NMM, 2008.- B. 85-86.
4. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, 57(1), 153–157.
5. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 648–653.
6. Majidova Shahnoza Komilovna, Ne‘matova Jahonbibi Davron qizi. (2024). FEATURES OF THE USE AND EXPRESSION OF THE WATER LAXEM IN THE WORKS OF M. KOSHGARI, Y.H.KHAJIB, Z.M.BABUR. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).
7. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdulkarimovna. (2023). Ta’lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
9. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
10. Sahkiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE‘RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, 57(1), 147–152.
11. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE‘RIYATI VA TILI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 143–146.

12. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 168–170.
- 13.11. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. PEDAGOGS, 46(1), 67–69.
14. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 63–75.
15. Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. PEDAGOGS, 57(1), 139–142.
16. Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160.
17. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.